

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi

Toshkent davlat agrar universiteti

O'zbekiston "Agrar soha ayollari" uyushmasi

QO'SHMA QAROR

"06." Iyun. 2025 yil.

17/06.25 // 1/04.25 // 01/06.25

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son Farmonida belgilangan manfaatli loyihalarni hamkorlikda amalga oshirish maqsadida

QAROR QILAMIZ:

1. Toshkent davlat agrar universiteti (keyingi o'rinlarda – Universitet) Kengashining va jamoat tashkilotlarining Universitetda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan "Agroecoclub" faoliyatini tashkil etish borasidagi taklifi ma'qullansin.

2. "Agroecoclub"ning asosiy faoliyat yo'nalishlari:

jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish va barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga hissa qo'shish;

ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatni ma'lum bir agroekologik faoliyatga kiritish orqali Universitetning ochiq ta'lim muhitida talabalar va magistrantlarning faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish;

zamonaviy ekologik yondashuvlarni, shuningdek qishloq xo'jaligini tabiatga uyg'un holda rivojlantirishni amalga oshiradigan yosh mutaxassislarni shakllantirishga ko'maklashishdan iboratdir.

3. Belgilansinki:

"Agroecoclub"ning boshqaruvi tarkibi 21 nafar kishidan iborat bo'ladi va boshqaruv a'zolari ochiq tanlov natijalariga ko'ra aniqlanadi;

ochiq tanlov to'g'risidagi e'lon Universitetning internet va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifasida joylashtiriladi;

Universitetning 45 yoshga to'lmagan professor-o'qituvchilari, doktorantlari, magistrantlari va talabalari mazkur ochiq tanlovda qatnashish huquqiga ega bo'ladi;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston "Agrar soha ayollari" uyushmasi va Toshkent davlat agrar universitetining vakillaridan iborat bo'lgan ishchi guruhi tomonidan ochiq tanlovda ishtirok etgan nomzodlar orasidan "Agroecoclub"ning boshqaruvi tarkibi shakllantiriladi;

“Agroecoclub”ning faoliyatini tashkil etish, uning seksiyalarini shakllantirish va boshqa tashkiliy masalalar “Agroecoclub”ning boshqaruvi a’zolarining umumiy yig’ilishida tasdiqlanadigan nizomda belgilanadi;

“Agroecoclub”ning seksiya rahbarlari va boshqaruvi a’zolari har chorakda qo’shgan hissasiga ko’ra bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravaridan 5 baravarigacha Toshkent davlat agrar universitetining rivojlanish jamg’armasi mablag’lari hisobidan rag’batlantirib boriladi;

Universitetning barcha professor-o’qituvchilari, ishchi-xizmatchilari, doktorantlari, magistrantlari va talabalari “Agroecoclub”ning a’zosi bo’lishlari mumkin.

4. Moliya-iqtisod ishlari bo’yicha prorektor D.Mamadiyarov, bosh muhandis Sh.Sherov “Agroecoclub”ni Universitetning bosh binosiga joylashtirilishini va ajratilgan xonalarning nuqsonlar dalolatnomasini rasmiylashtirilishini ta’minlasin.

5. “Agroecoclub”ning samarali faoliyat yuritishi uchun ajratilgan xonalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi mablag’lari hisobidan kapital ta’mir lanib, zamonaviy ofis mebellari va kompyuter texnikalari bilan jihozlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor L.Lapasov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor K.Sultonov, Yuridik bo’lim (Xusenov) “Agroecoclub” faoliyatini tashkil etish borasida uning boshqaruviga tashkiliy va huquqiy jihatdan yordam ko’rsatsin.

7. Mazkur qaror ijrosi nazoratini o’z zimmamizda qoldiramiz.

**Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot
dasturi Milliy koordinatori**

U.Islamov

Toshkent davlat agrar universiteti rektori

N.Oblomuradov

**O’zbekiston “Agrar soha ayollari” uyushmasi
raisi**

A.Axmedjanova

